**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G .I. Muxamedov
____________________
2023 yil “29” 08

**UMUMIY PSIXOLOGIYA**
**O‘QUV DASTURI**

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 – Ta’lim |
| **Ta’lim sohasi**: | 110000 – Ta’lim |
| **Ta’lim yo‘nalishi**: | 60112300-Texnologik ta'lim |

Chirchiq – 2023

| Fan/modul kodi<br>PSY108 | O'quv yili<br>2023-2024 | Semestr<br>1- 2 | ECTS - Kreditlar<br>4 - 4 |
|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>majburiy | **Ta'lim tili**<br>O'zbek | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4 |

| | Fan nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | **Umumiy psixologiya** | 120 | 120 | 240 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan **maqsad** - talabalarda umumiy psixologiya fani, psixika, psixologiya fanining tarixi, shaxs, faoliyat, muloqot, bilish jarayonlari, irodaviy sifatlar, hissiy holatlar, individual-xususiyatlarga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir hamda psixologiya fani haqidagi zamonaviy ilmiy bilimning o'zgartirilishini tashkil etishdir.

Fanning **vazifasi** - talabalarga umumiy psixologiyaning mohiyati, psixologiya fanining tarixi, psixika va ong tushunchalari, psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar, individ, shaxs, individuallik va uning o'ziga xos xususiyatlari, boshqaruv va mehnat psixologiyasining xususiyatlariga oid bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

**II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I.Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**Umumiy psixologiya fanining taraqqiyoti**

**1 – mavzu: Psixologiya fanining predmeti va rivojlanish tarixi. Psixologiyaning tadqiqot metodlari**

Psixologiya fanining predmeti va vazifalari. Psixologiyaning tuzilishi, psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni va fanning asosiy tamoyillari. Psixologiya fanining rivojlanish tarixi va fanining yirik ilmiy maktablari. O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanish tarixi. Umumiy psixologiya fanining asosiy metodlari. Umumiy psixologiya fanining yordamchi metodlari. B.G.Ananyev bo'yicha metodlar klassifikatsiyasi.

**2– mavzu: Ong taraqqiyoti va ongsizlik. Valeologik ong. Xulq-atvorning psixofiziologik asosi.**

Psixika va ong munosabati. Ongning paydo bo'lishi va uning taraqqiyoti. Ong va ongsizlik (anglanmagan, ong darajasiga borib yetmagan harakatlar) holatlari. Odam psixikasining ontogenez taraqqiyoti.Psixikaning filogenetik taraqqiyoti, seskanuvchanlik va sezuvchanlik, tropizmlarning mohiyati, instinkt tushunchasining mazmuni, ko'nikma va malakalar, hayvonlarning intellektual xatti-harakatlari, psixikaning muhit va a`zolar

tuzilishiga bog`liqligi.

**3 – mavzu: Diqqat**

Diqqat haqida tushuncha. Diqqatning nerv-fiziologik asoslari. Diqqat turlari, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriydan so'nggi diqqat. Diqqatning xususiyatlari. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari.

**4 – mavzu: Sezgi**

Sezgilarning tasnifi, sezgilarning turlari va jarayonlari. Ekstroretseptiv sezgilar, introretseptiv sezgilar, proprioretseptiv sezgilar, analizator va uning tuzilishi, sezgi sohasidagi qonuniyatlar.

**5 - mavzu: Idrok**

Idrok haqida tushuncha. Idrokning nerv-fiziologik asoslari. Idrokning murakkabligi. Idrokda kuzatish va kuzatuvchanlik. Idrokning xossalari. Vaqt, harakat va fazoni idrok qilish. Xayol haqida tushuncha. Xayol jarayonlari. Xayol turlari. Xayol sifatlari. Xayolning rivojlanishi.

**6 - mavzu: Xotira**

Xotira haqida tushuncha. Xotiraning nerv-fiziologik asosi. Xotira nazariyasi. Xotira turlari, faoliyatga ko'ra xotira turlari, maqsadiga ko'ra xotira turlari, muddatiga ko'ra xotira turlari. Xotira jarayonlari, esda olib qolish, esga tushirish, esda saqlash, unutish. Xotira tiplari.

**7 - mavzu: Xayol**

Xayol haqida tushuncha. Xayolning nerv-fiziologik asosi. Xayol turlar. Xayol jarayonlari.

**8 - mavzu: Tafakkur va nutq. Intellekt va kreativlik**

Tafakkur haqida tushuncha. Tafakkur va hissiy bilish. Tafakkur operatsiyalari, tafakkur shakllari, hukm, xulosa chiqarish, tushuncha, tafakkur sifatlari, tafakkurning mazmundorligi. Shakliga ko'ra tafakkur turlari, Amaliy tavsiyalar. Nutq va uning turlari. Tafakkur va nutqning til bilan chambarchas bog'langanligi. Intellekt va kreativlik haqida tushuncha. Intellekt va kreativlikning o'zaro aloqasi. Intellektni o'lchashda zamonaviy testlar tarixi. Intellektning shaklllanishida atrof- muhim va irsiyatning roli. Intellektning rivojlanishidagi jinsiy farqlar.

**9 - mavzu: Shaxs**

Shaxs haqida tushuncha, individ, shaxs, individuallik tushunchalari. Shaxs faolligi tushunchalarining mazmuni. Shaxsning tuzilishi. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Biogenetik nazariya va uning mohiyati, sotsiogenetik nazariyaning mazmun mohiyati.

**10 - mavzu: Faoliyat va motivatsiya**

Faoliyat haqida tushuncha, faoliyatning tuzilishi, faoliyatning o'ziga xosligi. Ehtiyojlar faollikning manbai sifatida. Shaxs va uning faolligi, faoliyat turlari. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi. faoliyatning interiorizatsiyasi va eksteriorizatsiyasi.

Motiv va motivatsiya tushunchasining mazmuni, motivatsiya sohalari.

**11 – mavzu: Muloqot psixologiyasi**

Muloqot to'g'risida umumiy tushuncha, muloqot turlari. Muloqot va uning ko'p maqomli xarakteri. Muloqot vazifalari. Muloqotning verbal vositalari, muloqotning noverbal vositalari, muloqot shaxslararo o'zaro ta'sir etish sifatida, muloqot insonlarning bir-birini tushunishi, muloqot texnikasi va usullari. Muloqot va shaxslararo ziddiyatlar. Nizolar psixologiyasi. Ijtimoiy psixologik treninglar.

**12 – mavzu: Shaxsning hissiy va irodaviy soxasi**

Hissiyot haqida tushuncha. Hissiyotlar nazariyalari. Kayfiyatlar, stress, depressiya, eyforiya. His-tuyg`ularning vazifalari. Hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslari. Insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar. Hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarni kechirish shakllari. Iroda haqida tushuncha. Irodaviy xatti-harakat motivatsiyasi. Iroda borasidagi nazariyalar. Irodaviy akt va uning tuzilishi.

**13 – mavzu: Temperament**

Temperament haqida tushuncha. Temperamentning rivojlanishi tarixi. Temperament tiplari. Oliy nerv faoliyati tipi va temperament. Temperament tiplari. Temperament xususiyatlari.

**14 – mavzu: Xarakter**

Xarakter haqida tushuncha. Xarakterning nerv-fiziologik asoslari. Xarakter tipologiyasi, xarakter aksentuatsiyasi, xarakter tarkibi, xarakterning shakllanishi. Xarakter tuzilishi va xususiyatlari.

**15 – mavzu: Qobiliyatlar**

Qobiliyatlar haqida tushuncha. Qobiliyat va irsiyat. Qobiliyatlarning sifat va miqdor tavsifi. Qobiliyatlar tuzilishi. Talantning paydo bo'lishi va tuzilishi. Qobiliyat va talantning tabiiy shartlari.

**Yosh davrlari va pedagogik psixologiya**

**1 – mavzu: Yosh va pedagogik psixologiya fanining vazifalari va**

| | |
|---|---|
| | **rivojlanish bosqichlari**<br>Yosh va pedagogik psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Psixik rivojlanish haqidagi nazariya va ta'limotlar. Fanning asosiy sohalari, yosh va pedagogik psixologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Yosh va pedagogik psixologiyaning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni, yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlari haqida tushuncha.<br>Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o'ziga xos xususiyatlari. Rivojlanishni davrlashtirish muammosi psixik rivojlanish va ta'lim o'rtasidagi o'zaro munosabat. Turli yosh davrlarda yetakchi faoliyat turlari.<br><br>**2 – mavzu: Ontogenezning ilk bosqichlarida psixik rivojlanish xususiyatlari**<br>Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiy tushuncha. Tug`ilish davri inqirozi. "Tirilish kompleksi" haqida. Go'daklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emotsional muloqotning ahamiyati (emotsional deprivatsiyaning salbiy oqibatlari). Bir yosh inqirozi haqida. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglashning rivojlanishi va 3 yosh inqirozi.<br><br>**3 – mavzu: Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari**<br>Maktabgacha yosh davrida psixofiziologik taraqqiyotning umumiy tavsifi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolaning etakchi faoliyati sifatida (o'yin faoliyatining mohiyati, turlari, bilish jarayonlari va shaxs taraqqiyotiga ta`sir ko'rsatish mexanizmlari, o'yinchoqning bola psixik rivojlanishiga ta`siri muammosi). Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar.<br><br>**4 – mavzu: Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari**<br>Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. Kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashishi muammosi. Kichik maktab yoshi davrida kognitiv - affektiv sohalardagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari (o'quv faoliyati, shaxslararo munosabatlarning motivatsion asoslari).<br><br>**5 – mavzu: O'smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari**<br>O'smirlik davridagi psixik rivojlanishning umumiy tavsifi, o'smirlik davri inqirozi va uning psixologik, psixofiziologik sabablari, bu davrda intellektual va yemosional rivojlanish xususiyatlari, o'smirlik davrida motivasion sohadagi rivojlanish xususiyatlari (tengdoshlar bilan muloqot qilish motivasiyasi, o'quv faoliyati motivasiyasi, jinoiy xulq-atvor motivlari), |

o'smirlik davrida shaxsning rivojlanish xususiyatlari, o'smirlik davrida o'z-o'ziga baho berish tizimining rivojlanishi muammosi borasidagi tasavvurlarni hosil qilish.

**6 – mavzu: Ilk o'spirinlik va yoshlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari**

Ilk o'spirinlik davriga umumiy tavsif, ilk o'spirinlik davrida intellektual va emosional rivojlanish xususiyatlari, ilk o'spirinlik davrida do'stlashish muammosining psixologik xususiyatlari, ilk o'spirinlik davrida muhabbat, ilk o'spirinlik davrida o'zini-o'zi anglashning rivojlanishi, ilk o'spirinlik davrida o'quv-kasbiy faoliyatning yetakchi faoliyatga aylanishi va kasb tanlash muammosi, ilk o'spirinlikda kasbga yo'naltirishning psixologik muammolari haqida ilmiy bilimlarni shaklliantirish. Yoshlik davri va uning o'ziga xos xususiyatlari, o'z-o'zini anglash, kasbiy anglanganlik.

**7–mavzu: Yetuklik davrining psixologik xususiyatlari**

Yetuklik davrining birinchi bosqichidagi shaxsning psixologik xususiyatlari, yetuklik davrining ikkinchi bosqichidagi shaxsning psixologik xususiyatlari. Yetuklik davrining ijtimoiy-psixologik jihatlari. Yetuklik davrining bosqichlari. Kattalarning bilish jarayonlari va emotsional rivojlanishi xususiyatlari. Yetakchi faoliyat.Ijtimoiy xulq-atvordagi umumiy o`zgarishlar. Kattalarning o`zini-o`zi anglashining xususiyatlari. .

**8–mavzu: Gerontopsixologiya**

Gerontopsixologiya - keksalik psixologiyasi haqida umumiy tushuncha. Qarilikning bilish jarayonlari va emotsional rivojlanishi xususiyatlari. Yetakchi faoliyat. Ijtimoiy xulq-atvordagi umumiy o`zgarishlar. Qarilarning o`zini-o`zi anglashining xususiyatlari. Keksalik davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlari. Biologik keksayish davridagi shaxs psixologiyasi. Qariyalar psixologiyasiga umumiy tavsif. Uzoq umr ko'ruvchilarning psixologik hususiyatlari.

**9–mavzu: Oila psixologiyasi**

Oila kichik guruh sifatida. Oiladagi shaxslararo munosabatlarning tizimiga xos umumiy xususiyatlar. Yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlik muammosi. Nikoh va oila haqidagi tasavvurlar. Oilaviy tarbiya uslublari. Oilaviy shaxslararo munosabatlarning mummolari, oilaviy nizolar.

**10–mavzu: Tarbiya jarayonining psixologik asoslari**

Tarbiya jarayonining psixlogik mohiyati. Tarbiya metodlari va turlari. Bolalar jamoasi va uning tarbiyaviy imkoniyatlari. Tarbiyasi "qiyin" va o'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan ishlash metodlari. Ilmiy dunyoqarash va barqaror e'tiqodni shakllantirish metodlari.

| | |
|---|---|
| | **11–mavzu: Ta`lim jarayonining psixologik asoslari**<br>Ta'limning yosh psixologiyasi taraqqiyotida tutgan o'rni. Ta'lim va aqliy taraqqiyot. O'qish faoliyati va uning turlari. Ta'lim va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish muammolari hamda imkoniyatlari.<br><br>**12–mavzu: Psixologiyada guruhlar muammosi va qonuniyatlari**<br>Kichik guruhlar psixologiyasi. Kichik guruhlardagi muammolar. Kichik guruhlarga xos qonuniyatlar. Kichik guruhlar klassifikasiyasi. Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar.<br>Katta guruhlar psixologiyasiga xos umumiy xususiyatlar. Etnik guruhlar psixologiyasi. Katta guruhlarni ilmiy tadqiq qilishning metodologik muammolari.<br><br>**13–mavzu: Pedagogik qobiliyatlar**<br>Pedagogik faoliyatning psixologik xususiyatlari, pedagogning o'z-o'ziga talab qo'yishi muammosi, o'qituvchining kasbiy moslashishi muammosi, jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni va uning vazifalari, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar,o'qituvchining kasbiga xos xislatlari, o'qituvchi o'quvchilarning hayoti va faoliyati tashkilotchisi yekanligi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, pedagogik muloqot va uning o'ziga xos xususiyatlari,pedagogik qobiliyatlarning turlari, pedagog o'z ilmiy, o'quv-uslubiy salohiyatini oshirishining psixologik muammolari haqida tushuncha va ilmiy tasavvurlar hosil qilish.<br><br>**14–mavzu: Boshqaruvning pedagogik-psixologik xususiyatlari**<br>Psixologiyada boshqarish muammosi. Guruhlarda rahbarlik va liderlik. Liderlikka oid nazariyalar. Xarizmatik nazariya. Vaziyatga bog'liqlik nazariyasi. Liderlik uslublari haqida tushuncha. Avtoritar uslub. Demokratik uslub. Liberal uslub. Rahbarlik sifatlari. Liderlik va superliderlik.<br><br>**15–mavzu: Shaxs ijtimoiylashuvi va ijtimoiy hulq-atvor**<br>Shaxs ijtimoiylashuvi va ijtimoiy hulq-atvor. Shaxs ijtimoiylashuvi va bosqichlari. Ijtimoiy institut inson faoliyatining muhim sohalarini tartibga soluvchi ob'yekt sifatida. Shaxs ijtimoiylashuvida ijtimoiy status va ijtimoiy hulq-atvorni o'rni. Ijtimoiy ustanovka haqida tushuncha. |
| | **III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**<br>**Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**<br>**I-semestr**<br>1. Psixologiya fanining predmeti va rivojlanish tarixi. Psixologiyaning tadqiqot metodlari.<br>2. Ong taraqqiyoti va ongsizlik. Valeologik ong. Xulq-atvorning |

psixofiziologik asosi.

3. Diqqat.
4. Sezgi.
5. Idrok.
6. Xotira.
7. Xayol.
8. Tafakkur va nutq. Intellekt va kreativlik
9. Shaxs.
10. Faoliyat va motivatsiya.
11. Muloqot psixologiyasi.
12. Shaxsning hissiy va irodaviy sohasi.
13. Temperament.
14. Xarakter.
15. Qobiliyatlar.

**II-semestr**

1. Yosh va pedagogik psixologiya fanining vazifalari va rivojlanish bosqichlari.
2. Ontogenezning ilk bosqichlarida psixik rivojlanish xususiyatlari.
3. Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.
4. Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.
5. O'smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.
6. Ilk o'spirinlik va yoshlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.
7. Yetuklik davrining psixologik xususiyatlari.
8. Gerontopsixologiya.
9. Oila psixologiyasi.
10. Tarbiya jarayonining psixologik asoslari.
11. Ta`lim jarayonining psixologik asoslari.
12. Psixologiyada guruhlar muammosi va qonuniyatlari.
13. Pedagogik qobiliyatlar.
14. Boshqaruvning pedagogik-psixologik xususiyatlari
15. Shaxs ijtimoiylashuvi va ijtimoiy hulq-atvor

**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

**I-semestr**

1.Psixologiya fanining predmeti.
2.Psixologiya fanining maqsad va vazifalari.
3.Ong haqida tushuncha va uning xossalari.
4.Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari.
5.Psixikaning filogenetik taraqqiyoti.
6.Faoliyatning o'zlashtirilishi va malakalarni egallash.
7.Xorij psixologiyasida motiv va motivatsiya muammosi.
8.Muloqot haqida tushuncha.
9.Pedagogik faoliyatda muloqot.
10. Individ, shaxs, individuallik tushunchalari.
11. Shaxsning malaka va odatlari.
12. Chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari.
13. Diqqat haqida tushuncha va uning nerv-fiziologik asoslari.
14. Diqqat turlari va uning xususiyatlari.
15.Sezgilar haqida umumiy tushuncha va uning nerv fiziologik asoslari.
16. Sezgi turlari va uning qonuniyatlari.
17. Idrok haqida tushuncha va uning xususiyatlari.
18. Xotira haqida tushuncha va uning nerv-fiziologik asosi.
19.Xotira turlari va uning jarayonlari.
20.Xayol haqida tushuncha.
21.Xayol jarayonlari va xayol turlari.
22.Tafakkur borasidagi psixologik nazariyalar.
23.Tafakkur operatsiyalari.
24.Intellekt va kreativlik nazariyalari.
25.Temperament va uning nazariyalari.
26.Iroda borasidagi nazariyalar.
27. Emotsional holatlar.
28. Xarakter haqida tushuncha.
29. Qobiliyat va uning rivojlanishi.
30. Ong osti sohasi.

**II-semestr**

1.Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari.
2.Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlari.
3.Tug`ilish davri inqirozi.
4."Tirilish kompleksi".
5.Gudaklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emotsional muloqotning ahamiyati.
6.Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari
7.Maktabgacha yosh davrida psixofiziologik taraqqiyotning umumiy tavsifi

| | |
|---|---|
| | 8.O`yin maktabgacha yoshdagi bolaning etakchi faoliyati sifatida<br>9.7yosh inqirozi, uning sabablari va alomatlari.<br>10.O`smirlik davridagi psixik rivojlanishning umumiy tavsifi.<br>11.Ilk o`spirinlik davrida o`quv-kasbiy faoliyatning etakchi faoliyatga aylanishi va kasb tanlash muammosi.<br>12.Gerontopsixologiya.<br>13.Pedagog o'z ilmiy, o'quv-uslubiy salohiyatini oshirishning psixologik muammolari.<br>14.Ta`lim jarayonida o`quv motivatsiyasi va uni boshqarish muammosi.<br>15."Tarbiyasi qiyin" o`quvchilar bilan ishlashning psixologik asoslari.<br>16.O`quv jamoasini boshqarishning psixologik asoslari.<br>17.Ta`lim jarayonining psixologik mazmuni, tarkibiy tuzilishi.<br>18.Ta`lim jarayonida o`quv motivatsiyasi va uni boshqarish muammosi.<br>19.Ta`lim va psixik rivojlanish munosabati.<br>20.Tarbiya jarayonining psixologik mohiyati, maqsad va vazifalari.<br>21.Tarbiyaviy ta`sirning psixologik asoslari.<br>22.Tarbiyada individual yondashuv muammosi.<br>23."Tarbiyasi qiyin" o`quvchilar bilan ishlashning psixologik asoslari.<br>24.Mehnat faoliyatining tarbiyaviy ahamiyati.<br>25Tarbiya metodlari va vositalarining psixologik mazmuni.<br>26.Shaxsning o`zini-o`zi tarbiyalashi muammosi yuzasidan tasavvurlarni shakllantirish.<br>27.Pedagogik faoliyatning psixologik xususiyatlari.<br>28.Pedagogik muloqot psixologiyasi (pedagogik muloqot ijodiy jarayon sifatida, pedagogning kommunikativ madaniyati).<br>29.Pedagogning o`zini-o`zi boshqarishi muammosi.<br>30.O`quv jamoasini boshqarishning psixologik asoslari. |
| 3 | **VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>Psixologiyaning tabiiy va ijtimoiy fan sifatida talqin qilinishi, psixologiya fanining tarixi, psixologiyaning sohalari, psixologiya fanining metodlari, pedagog faoliyatida psixologiyaning yetakchi ahamiyatga ega ekanligi, psixika va ong munosabati; mavjudotning ob'ektiv borliqni aks ettirish shakli ekanligi,rivojlanish psixologiyasi, pedagogik psixologiya, shaxs rivojlanishining psixologik qonuniyatlari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;***<br>- talaba psixologiya fanining predmeti, psixika va ong, valeologik ong, psixologik metodlar, individ, irsiyat va muhit, shaxs, muloqot, faoliyat, bilish jarayonlari, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi, shaxsning individual xususiyatlari psixologiyada boshqaruv muammolari, mehnat psixologiyasi yuzasidan tushuncha, tasavvurga ega bo'lish bilan birga,shaxs rivojlanishining turli davrlaridagi psixologik o'zgarishlar, qonuniyatlar, mexanizmlar, tamoyillarni, ta'lim-tarbiyani tashkil qilish,psixik rivojlanishga ta'lim-tarbiya jarayonlarining ta'siri yuzasidan olingan bilimlarni amaliy |

| | |
|---|---|
| | faoliyatga tadbiq yetish bo'yicha *ko'nikmalarga ega bo'lishi;*<br>– shaxsni o'rganishning metodologik asoslari, ongsizlik muammosi, sog'lom ruhiyatni shakllantirish, aqliy operatsiyalarning asosiy turlari, shaxsning bilish jarayonlari, shaxs xususiyatlarini tadqiq qilish ularning qo'llanilishi boshqaruv va mehnat psixologiyasi hamda talaba shaxs rivojlanishi borasidagi psixologik hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, shaxs kamoloti borasidagi muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish bo'yicha ***malakaga ega bo'lishi kerak.*** |
| 4 | **VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar |
| 5 | **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 8 | **X. Asosiy adabiyotlar:**<br>1.S.R.Mirzayeva, Sh.R.Samarova, O.U.Avlayev «Umumiy psixologiya» darslik. – T.: 2022, 659 bet.<br>2.Ivanov I., Zufarova M. "Umumiy psixologiya". O'z.FMJ., 2008.<br>3.Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "Fan va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.<br>4.Klimov E.A. "Obshaya psixologiya". – Cpb., Piter, 2001.<br>5.G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi.Toshkent, Noshir., T 2010.<br>6. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva,<br>7.M.X.Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya" "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti.T-2018 602 bet<br><br>**XI.Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston", 2017.<br>3. David G.Myers. "Psychology" Michigan USA: Worth Publishers.: 2011.<br>4.Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. T., 2006 |

| | |
|---|---|
| | **Axborot manbalari**<br>http://www.edu.uz–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.<br>http:www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.<br>http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi xukumati portali.<br>www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)<br>www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portal<br>www.cspi.uz (Chirchiq davlat pedagogika universiteti veb sayti.) |
| 7 | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil "29" august dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8 | **Fan/modul bo'yicha mas'ullar:**<br>**Sh.R.Samarova** – CHDPU "Psixologiya" kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari nomzodi.<br>**S.R.Mirzayeva-** Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Psixologiya" kafedrasi dotsenti,psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(Phd) |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>**N.B. Atabayeva** – Nizomiy nomidagi TDPU "Psixologiya" kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari doktori.<br>**O.U.Avlayev** – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Psixologiya" kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi. |